

VLADIMIR GRIGORYEVICH GAK TALQINIDA GAPLARNING LEKSIK-GRAMMATIK TUZILISHI

Ruziyeva Nasiba Kenjayevna, Samarkand davlat universiteti

Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi

THE LEXICO-GRAMMATICAL STRUCTURE OF SENTENCES IN THE INTERPRETATION OF VLADIMIR GRIGORYEVICH GAK

Ruziyeva Nasiba Kenjayevna, Teacher, Kattakurgan Branch of
Samarkand State University

ЛЕКСИКО-ГРАММАТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ПРЕДЛОЖЕНИЙ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ВЛАДИМИРА ГРИГОРЬЕВИЧА ГАКА

Рузиева Насиба Кенжавна, преподаватель

Каттакурганского филиала

Самаркандинского государственного университета

Annotatsiya: Ushbu maqolada V.G. Gak tilshunoslikda lug‘at

va grammatika o‘rtasidagi mayjud munosabat muammosini o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratgan. V.G. Gak “Lug‘at va grammatika o‘rtasidagi munosabat masalasida (fransuz tili sintaksisi asosida)” nomli maqolasida tadqiqot muammolari shakl doirasidagi leksik va grammatik ma’nolarning o‘zaro ta’siri va bu shakldan foydalanishga lug‘at tomonidan qo‘yilgan cheklovlar, grammatik shaklning lug‘at ta’sirida ma’no o‘zgarishi, grammatik ma’nolarni (asosan, morfologik) ifodalash uchun leksik birliklardan foydalanish kabi masalalar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: leksik, grammatik, stilistik, morfologik.

Abstract: In this article, V.G. Gak paid serious attention to the study of the problem of the existing relationship between vocabulary and grammar in linguistics. In his article “On the issue of the relationship between vocabulary and grammar (based on the syntax of the French language)”, V.G. Gak scientifically analyzed such issues as the interaction of lexical and grammatical meanings within the framework of the form and the restrictions imposed by the dictionary on the use of this form; the change in meaning of the grammatical form under the influence of the dictionary; the use of lexical units to express grammatical meanings (mainly morphological).

Keywords: lexical, grammatical, stylistic, morphological.

Аннотация: В этой статье рассматривается как В.Г.Гак уделил серьезное внимание изучению проблемы соотношения лексики и грамматики в языкоизании. В своей статье “К вопросу о соотношении лексики и грамматики (на материале синтаксиса французского языка)” В.Г.Гак научно проанализировал такие исследовательские проблемы, как взаимодействие лексических и грамматических значений в рамках формы и ограничения, накладываемые словарем на употребление этой формы; изменение значения грамматической формы под влиянием словаря; использование лексических единиц для выражения грамматических значений (в основном морфологических).

Ключевые слова: лексический, грамматический, стилистический, морфологический.

KIRISH

(ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). V.G. Gak

“Rus tiliga nisbatan fransuz tili materiali asosida

gaplarni leksik-grammatik tashkil etish muammolari”[1] mavzusidagi dissertatsiya ishida muloqot jarayonida gaplarni leksik-grammatik



<https://orcid.org/0009-0004-3424-9485>

e-mail:

ruziyevanasiba24.02@gmail.com



tashkil etish qonuniyatlarini o'rganishni maqsad qilgan. Muloqot jarayonida tildan qanday foydalanish kerak, degan savolga javob berish uchun semantik uchburchakning uch tomonidagi munosabatni – “til – tafakkur – ekstralingvistik vaziyat”ni hisobga olish kerakligi uqtirilgan. Til amaliy jihatdan tahlil qilinarkan, voqelikdan til shakllariga o'tish yo'llari, ya'ni lingvistik nominatsiya qonuniyatlarini o'rganish zarurdir. Bunday holda belgilangan obyektlar hamda vaziyatlarning qaysi tomonlari nom uchun asos sifatida ishlataladi, uni belgilash uchun qanday lingvistik vositalar qo'llaniladi, qaysi elementlar ifodalanmagan yoki aksincha, kabi savollarga o'z javobini topishi kerak. Shuning uchun tilning to'liq tavsifi uch grammatikani o'z ichiga olishi kerak: Grammatik tuzilishi – belgilovchilar va ular o'rtasidagi munosabatlarning tavsifi; Nutqning passiv (realizatsiyasi) – shaklni ma'lum bir vaziyatga nisbatan izohlash qoidalari; Amalga oshirishning faol tuzilishi – ma'lum vaziyatni tavsiflashda optimal shaklni tanlash qoidalari. Muallif tilni amalga oshirish muammosining ikki jihatini ajratadi: amalga oshirish-aktuallashtirish (Sh.Balli nuqtayi nazaridan) va amalga oshirish-tanlash.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD
(ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** V.G.Gak qisman (so'z) va to'liq belgini (bayonot – muayyan vaziyat bilan bog'liq bo'lgan aniq jumla) aniqladi.

Vaziyat elementini belgilashda nominatsiyaning funksional, semantik va tarkibiy tipologiyalari ajratiladi. Funksional, sintagmatik jihatdan vaziyatga qarab aniqlangan va takroriy nominatsiyalar o'ziga xos tashkil etish sifatiga ega. Sintagmatik jihatdan aniqlangan nominatsiya bilan bayonotda tasvirlangan obyektlarning barqaror tabiat katta ahamiyatga ega. Ishning nazariy ahamiyatini unda semantik transformatsiyaning universal qonuniyatları yoritilgani hamda nomzodlar paradigmasi o'rnatilgani yanada oshirgan.

a) vaziyatni ifodalaganda. U o'zicha ham harakatning boshqa zamonga tegishli ekanligini ko'rsatishi mumkin. *Quand est-ce que je te vois?* gapida vaziyat (situatsiya) harakatning kelasi zamonga qarashli ekanligini ko'rsatadi;

b) payt holi. *Tu viens souvent? // Tu viens ce soir* gaplarida hol vazifasida kelgan so'zlar présent

mos ravishda hozirgi va kelasi zamonlarni ifodalab keladi. Holning fe'l zamon shakllari ma'nolarining voqelanishidagi roli juda katta. O'z ma'nosida to'g'ri qo'llangan hol zamon semasini mazmunan harakat fe'l shakliga “uzatadi”. Masalan, *Hier, je rentre, et qu'est-ce que je vois?* (sodir bo'lgan harakat). Demain, je rentre tard (sodir bo'ladigan harakat) [4].

c) fe'l semantikasi. To'siqli va to'siqsiz fe'llar orasidagi tafovut muhim ahamiyatga ega. Masalan, présent to'siqsiz fe'llar bilan bilan kelganda, odatda, hozirgi zamonni (Je mange), to'siqsiz fe'llar bilan kelganda esa kelasi zamonni ifodalaydi (J'arrive!);

d) yondosh gapdag'i zamon shaklida. Agar birinchi gap o'tgan zamonda berilgan bo'lsa, keyingi gaplarda présent, asosan, o'tgan zamondagi harakatlarni ifodalaydi: *Donc, mon frère et ma belle – soeur étaient ici. Au moment de se mettre à table, ma belle – soeur s'apperçoit qu'elle a oublié ses pelules. Je me propose pour aller les chercher...*

e) shart ergash gapning ikkala qismida ham présent kelasi zamonga taalluqli harakatni ifodalash mumkin: *Si tu bouges, je te jelle par la fenêtre* [3].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Vaziyat elementini belgilashning tashqi shakli nutqning qaysi qismiga va qaysi tuzilmaga (analitik va nazariy) denotatsiya berilgani bilan bog'liq.

Gapning nominativ birlik sifatidagi ichki tuzilish muammosi semantik tuzilma tildan tashqari vaziyat strukturasini qanchalik adekvat tarzda aks ettirishga qodir degan xulosani beradi. Gap tuzilishi va vaziyat strukturasini taqqoslar ekan, olim sintaktik va real aktantlarning sakkiztasini farqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, fransuz tilida mavjud uch transformatsiya usuli rus tiliga qaraganda ko'proq ishlataladi. Gap tuzilishining uch darajasi (semantik, sintaktik va kommunikativ) o'rtasidagi munosabatni o'rganish esa fransuz tilida gapning sintaktik tashkil etilishi ko'proq kommunikativ daraja bilan, rus tilida esa semantik daraja bilan mos kelishini isbotladi.

Umuman aytganda, tadqiqot vaziyatning alohida elementini hamda vaziyatini belgilashda rus tiliga nisbatan fransuz tilining tipologik xususiyatlarini umumlashtiradi. Bu xususiyatlar parallel bo'lib, belgilovchilarga, belgilovchining belgilovchiga munosabatiga va belgining tuzilishiga tegishlidir. Nutq darajasida tillar o'rtasidagi

tafovutlar ma'ruzachilarning fikrlash shakllaridagi farqlar tufayli bayonotlarni tuzish uslubidagi tavofutlar sifatida namoyon bo'ladi.

Gaplarni leksik va grammatick jihatdan to'g'ri tashkil qilish muammolari V.G.Gakning "Gap tuzilishi va gap tuzilishi o'rtasidagi munosabat to'g'risida" nomli maqolasida [1] yoritilgan. Maqolada gaplarni aloqa harakatiga mos ravishda mazmun va ifoda uyg'unligiga mansub birliklar sifatida farqlash zarur, degan xulosaga kelingan.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Grammatik ma'no leksik ma'nodan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

Mustaqil nominativ vazifaning yo'qligi. So'zlar nomlash, ya'ni g'ayrilisoniy obyektlarni mustaqil tarzda ifodalash xususiyatiga ega. Grammatik shakllar esa yo o'zicha nominativ vazifa bajarolmaydi yoki umuman, bunday xususiyatga ega emas. Boshqacha aytganda, ular mustaqil ravishda borliq obyektlarini ifodalamaydi yoki ular bilan semantik usulda umuman, bog'lanmaydi. Masalan, *il arrivera* [*il arivra*] va *il arrive demain* [*il arivdəme*]. Birinchi gapda kelasi zamон [*ra*], ikkinchi gapda [*dəmə*] yordamida ifodalangan. Biroq *Quand arrive - t - il?* So'rog'iga [*dəmə*] deya javob berish mumkin, ammo hech qachon [*ra*] degan javob berilmaydi. [*dəmə*] so'zi mustaqil nominativ vazifaga ega. Shuning uchun u alohida gap hosil qiladi. Binobarin, *demain* leksik, -*ra* esa grammatick hodisadir. *Est ce que le cahier est dans la serviette?* so'rog'iga *Oui, il est dedans*, deya javob berish mumkin, ammo *il est dans* deyish mumkin emas. Holbuki, ularning har ikkalasi ham makon ma'nosini ifodalaydi. *Dans bu ma'noni* gap tarkibida (*le cahier est dans la serviette*) kelgandagina ifodalaydi, chunki u yordamchi ("grammatik") so'z. Grammatik unsurlar leksik unsurlar bilan so'z (*il arrivera*) yoki gap tarkibida kelganda aloqaga kirishi mumkin [2].

Nutq harakatini har tomonlama tahlil qilish uning mantiqiy, semantik va sintaktik tuzilmalarini yanada aniqroq tavsiflashga xizmat qiladi. Muallif fransuz va rus tillaridan misollar keltirib, gapning sintaktik va mantiqiy-semantik tuzilishi o'rtasidagi munosabatni aniqlash tilning muhim tipologik xarakteristikasi ekanligini ko'rsatadi. Tillar nutq

akti tarkibida ushbu uch jihatni uyg'unlashtirish uchun turli xil vositalardan foydalanadi. Ushbu vositalarni o'rganish tillarning tipologik tavsifi uchun katta qiziqish uyg'otadi[2].

V.G.Gakning bir bosh bo'lakli to'liqsiz gaplar xususida yozganlari ham e'tiborga molik. U to'liqsiz gaplarni ikki bosh bo'lakli va bir bosh bo'lakli gaplarga ajratib o'rganadi. Ikki bosh bo'lakli gaplarda, odatda, fe'l tushirib qoldiriladi. Shuning uchun ularni ham to'liqsiz gap deb hisoblash kerak.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Xullas, professor V.G.Gakning ilmiy merosini o'rganish, asarlarini tarjima qilish bugungi o'zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki ularda fanimiz muammolari lisoniy tejamkorlik, til va nutq dixotomiyasi, lisoniy belgi asimmetriyasi, markaz va quyi, modus va diktum, birlamchi va ikkilamchi ma'no tamoyillari asosida g'oyat original tarzda ishlab chiqilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES):

1. Гак В.Г. О соотношении структуры предложения и структуры высказывания. – Мужвузовская конференция: Проблемы синхронного изучения грамматического строя языка. – Тезисы докладов. – МГПИИ, 1965. – С.53.
2. Рузиева Н.К. Общая характеристика лингвистических и лингвометодических трудов В.Г.Гака// Research and Education. – Tashkent, 2023, Issue: 4, Volume:11. – P.158-166.
3. Ruzieva N.K. Issues of spelling, stylistics and language teaching methodology in the works of V.G.Gak // Innovative trends in Science, Practice and Education. – Ankara, Turkey, 2024 y, 30th January. – P.98-105.
4. Ruzieva N.K. Umumiyy va Roman tilshunosligi//Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari nomli ko'p tarmoqli Respublika ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyasi. – Toshkent, 2024, 1-fevral. – B.17-21.